

ONA TILINING JAMIYATDAGI ROLI

Tuychiyeva Dilnavoz Qobiljon qizi

Xovos tumani 20-maktabning boshlang'ich sinfo'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni va uning bugungi kundagi ahamiyati tadqiq qilindi. Yutuq va kamchiliklar o'rganilgan hamda ularni bartaraf etish yo'llari keltirib o'tildi. O'zbek tilining nufuzini oshirish bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan amaliy ishlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: *til, jamiyat, Iosif Brodskiy, globallashuv, axborot, inson, millat ruhi, tilning nufuzi, "Devoni lug'ot at-turk"*

Ona tili- bu millatning ruhidir.

O'z tilini yo'qotgan har bir millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrardir.

(Islom Karimov)

Ona tilim, qanday sehring borki, pokiza qalblarni oshufta etding. Bu ajib sehrni munis onamning qalbimga huzur bag'ishlagan yoqimli allasidan, ilk bor so'zlashni o'rganayotgan murg'ak go'dakdan, shoir-u yozuvchilarning qalamidan to'kilgan go'zal misralaridan, nafosatda tengi yo'q nafis nastarinlardan, onamdek mag'rurlik neligin bilmaydigan, hamisha bosh egib turadigan qizg'in qizg'aldoqlardan, keksalarning pokiza qalbida qaytadan yoshlik nashidasini uyg'otgan bahor nafasidan, bag'rikeng o'zbegimning qaynoq qalbida qadr topgan qadriyatlardan, tarixning og'ir va mashaqqatli sinovlaridan sog' - omon o'tib, toza va sururli kechmishga erishgan qariyalarning nurli yuzidagi chiziqlardan, ariq bo'ylarida iforini olamga yoyayotgan yalpizlardan, tandirdan endigina uzilgan issiq va yoqimli kulchani etagiga o'rab hali u yoqqa, hali bu yoqqa yugurayotgan beg'ubor bolakaylarning tiniq osmondek pokiza qalbidan oldingmi yo?

Qalbimiz bahori bo'lmish munis onamiz allalari ila yuragimizda chechak otgan ajib sehr, sensan, ona tilim. Zero, bizga munavvar hayot baxsh etgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tiliga muhabbat – yuksak ma'naviyat belgisi. Ona tili – millatning ruhi. Til millatning qalbi, uning dunyoda mavjudligining asosiy belgisidir. O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir". 20

1989-yil 21-oktabr... Hali mustaqillik epkinlari esmay turib, ona tilimiz o'zining munosib maqomoini topdi. Bu mamlakatimiz, shuningdek, qalbida milliy g'urur hissini tuygan yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas tarixiy voqeaga aylandi. Bugungi kunda

²⁰ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"

davlat tili maqomiga ega bo'lgan tillar orasida o'zbek tilining mavjud ekanligi, shubhasiz, har birimizning qalbimizda faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmatda bo'lib, uning jamiyatimizdagi hurmatini yuksaltirishga o'z hissamizni qo'shmog'imiz kerak. Zero, til bor ekan, millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog'ondir. Xalqaro Nobel mukofoti sovrindori, mashhur yozuvchi Iosif Brodskiy: "Xalqda bor narsalarning eng yaxshisi – xalqning tilidir", – degan edi. Haqiqatan, til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan millat barhayotdir. Tilni onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqini keltirishim mumkin: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin".²¹

Xalqning ma'naviy olami dastlab uning tilida aks etadi. Xalqning tili asosida uning ruhiyati va ma'naviy qiyofasi haqida hukm chiqarish mumkin. Xalqimizda til bilgan el biladi, deya bejiz aytilmaydi. Shu sababli, boshqa tillarni o'rganish uchun bugunda keng sharoitlar yaratilmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, boshqa tillarni o'rganish o'z ona tili hisobiga amalga oshirilishi kerak emas. Aks holda biz o'zligimizni unuta miz. Endi shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy hol. Til bilish bugungi zamonda davr talabi emasmi?

To'g'ri, til bilish bugungi kunning talabi. Globallashuv davrida o'zbek tilining qo'llanilishi zamon talablariga muvofiq olib borilishi kerak. O'zbek tiliga muvofiq elektron tizimlarni yaratish, barcha davlat tashkilotlari o'zbek tilida ish yuritishlari uchun olimlarimiz tomonidan har bir sohaning terminologiyasi ishlab chiqilishi zarur deb hisoblayman. Buning uchun o'zbek tilini zamonaviy ilm-fan tiliga aylantirishimiz haqiqatan ham bugungi kunning talabidir. Shundagina boshqa til vakillari ham tilimizni hurmat qilishadi va tan olishadi. Zero, Cho'lpon aytganidek: "Til yashasa, millat yashaydi!"

Shuni bot-bot a Unutilgan so'zlarni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish yolg'iz tilshunoslarning emas, millatning ishidir".²²

²¹ Sh.M.Mirziyoyev "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi" munosabati bilan so'zlagan nutqidan

²² Erkin vohidov "So'z latofati" kitobidan

Ushbu fikrlar har birimizni ona tilini sevishga, uning rivojlanishi uchun o'z sohamiz bo'yicha oz bo'lsa-da, hissa qo'shishga undaydi. Yaqinda bir onaxon o'zi guvoh bo'lgan voqeani aytib berdi. O'g'li chet davlatlardan birida ham o'qib, ham ishlar ekan. "Menga kelin topsangiz, chet tillarini biladiganidan toping", debdi. U esa "Menga desa, o'nta tilda gapirmaydimi? O'zbek tilini bilmasa, kelin qilmayman. Nabiralaringa ona tilini kim o'rgatadi, axir? O'zga yurtlarda begonalashib ketadi-ku!", deya o'z gapini aytgan onaxon.

O'zbek tilining qadri, nufuzi yuksalishi uchun mana shu onaxon kabi har birimiz mas'ulmiz. Zero, ona tilimiz biz uchun muqaddas va hech qanday boylik yoki manfaat undan ustun bo'lolmaydi, degan edi, "O'zkiyosanoat" AJ davlat tilini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi Kumush Abdusalomova o'zining "Millatning eng qudratli boyligi, ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi muhim vosita, bu – til" nomli ilmiy maqolasida²³

Mavzuni o'rganish mobaynida bir qancha ilmiy maqolalar, inseklopedik qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishib chiqdim. Xususan, filologiya fanlari doktori Bahriddinovaning "Ona tilimiz taraqqiyotida yangi bosqich: muammo va yechimlar" nomli ilmiy maqolasi e'tiborimdan chetda qolmadi, maqolada keltirilgan barcha qiziqarli ma'lumotlarni kichik bo'lsada ilmiy asosda o'rganishga kirishdim va shuni bildimki, dunyo tillarining eng yirik va nufuzli nashri "Etnolog" ma'lumotlariga ko'ra²⁴ 2020-yil holatida yer yuzida 7139ta til mavjud bo'lib, ular jami 142 ta til oilasiga mansub. Mazkur tillardan 40ga yaqini eng keng tarqalgan tillar hisoblanib, dunyo aholisining 66%i shu tillarda gaplashadi. Ular ichida xitoy (1,7 mlrd.), ingliz (1,5 mlrd.), ispan (550 mln.), arab (380 mln.), hind (341 mln.), bengal (228 mln.), portugal (230 mln.), rus (210 mln.), fransuz (280 mln.) tillari dunyo miqyosida so'zlashuvchilar miqdoriga ko'ra yuqori pog'onalami egallaydi. Bugungi kunda matbuotda tillarning yangidan paydo bo'lishi emas, tanazzuli, yo'qolib ketishi xavfi katta ekanligi xususida fikrlar tez-tez uchramoqda. Globallashuv va migratsiya har ikki haftada dunyo tillarining bittaga kamayishi, tirik tilning eng so'nggi sohibi – iste'molchisidan ajralib, "o'lishi"ga sabab bo'lmoqda.²⁵ Shuningdek, muayyan tilda shu til ona tilisi bo'lgan yosh avlodning 70%dan kami gaplashayotgan bo'lsa, bunday tillarning ham kelajagi xavf ostida. O'rganishlarim natijasi shuni ko'rsatdiki, YuNESKOning "Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan dunyo tillari xaritasi"ga ko'ra, hozirda Yevropada 50ga yaqin til tanazzul arafasida. Umuman olganda, dunyo miqyosida

²³ "O'zkiyosanoat" AJ davlat tilini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi Kumush Abdusalomova o'zining "Millatning eng qudratli boyligi, ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi muhim vosita, bu – til" nomli ilmiy maqolasi

²⁴ <http://www.ethnologue.com/>

²⁵ <https://languageplus.info/staty/skolko-yazikov-v-mire>

ayni damda 400ga yaqin til yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi.²⁶ Farazlarga ko‘ra XXI asr o‘rtalariga kelib mavjud tillarning qariyb yarmi iste‘moldan chiqadi. Kichik millatlar va davlat tuzilmasiga ega bo‘lmagan xalqlarning tili, xususan, Avstraliya, Afrika, Amerika hamda ushbu qit‘alardan ajralgan orollarda yashovchi aborijenlar tili eng himoyasiz tillar bo‘lsa, aholisi zich joylashgan va yagona tilda gaplashuvchi hududlar, xususan, Yevropa tillari eng xavfsiz deb e‘tirof etilmoqda.²⁷

Ko‘rinib turibdiki, tillar qo‘llanish doirasi, nufuzi, tutgan o‘rni, huquqiy maqomiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Qayd etilgan 7 mingdan ortiq tildan 200 ga yaqinagina davlat tili, ya‘ni rasmiy til, qolganlari esa mahalliy tillar hisoblanadi. Ana shu 200 ga yaqin til ichida O‘zbekiston Respublikasining rasmiy tili bo‘lgan o‘zbek tilining ham borligi biz, til sohiblari uchun sharafdir. O‘z tiliga nisbatan qalbida zarracha muhabbat bo‘lgan odamgina ona vataniga, qadri baland qadrdon xalqiga xiyonat qilolmaydi. Tilimiz esa o‘zining qudratiga, kuchiga ega bo‘ladi, xalqimiz hech qachon asrlar davomida o‘zligini yo‘qotmaydi. Axir, Alisher Navoiy bobomiz ham “Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz” deb bejizga aytmaganlarku!

Biroq bu bilan g‘ururlanib yurishimizgina tilimizning kelajagini ta‘minlamaydi. O‘zbek romanchiligining asoschisi bo‘lgan bobokalonimiz Abdulla Qodiriy ijodini olib qaraydigan bo‘lsam ham, qalbimni junbo‘shga keltiradigan, mujgon ko‘zlarimni sevinch yoshlari-la to‘ldiradigan, purma‘no fikrlarni topish qiyin emas. Keling shu o‘rinda Qodiriyning bir risolasida o‘qigan quyidagi fikrlarimni siz azizlarimga ilinsam. Bu jumlar haqiqatan ham mening ko‘nglimdan joy olgan madhiya desam adashmayman. U shunday edi: “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”.

Mana tilga bo‘lgan chin muhabbat, ana shu muhabbat orqali o‘zbek adabiyotida, o‘zbek tilida ilk roman dunyoga kelgan. Endi ayni shu xususiyatlarni bugungi hayotimiz bilan taqqoslaydigan bo‘lsam, ming afsuslar bo‘lsinkim, xayolimda faqat va faqat bir fikr aylana boshladi. Xo‘sh biz nima qilayapmiz? Asar yozishni-ku chetga surib turaylik, o‘z ona tilimizda mehr-muhabbat ila to‘g‘ri gaplasha olayapmizmikin?!

Shu o‘ringa kelganda qalamim ojizlana boshladi. Yutuqlar bilan bir qator

Shu sababdan so‘nggi yillarda davlat tili bo‘lgan o‘zbek tili rivojiga e‘tibor oshdi. Mamlakatimizda til siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat milliy til taraqqiyotida yangi davr boshlanishi, balki tilshunoslik sohasidagi ilmiy-

²⁶ YUNESCO “Yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan dunyo tillari xaritasi”dan

²⁷ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

tadqiqot ishlarining ham yaboshladi. Muammo shundaki, o'zbeklarning ruscha gapirganda O'zbekistonni Uzbekistan, Jumayevni Djumayev, inglizcha gapirganda o'zbekni yuzbek deyishiga jo'jali asos topib bo'lmaydi, deydi Bahriddinova o'z maqolasida. O'rganishlarim natijasida yuqoridagi fikrlar qanchalar haqiqat ekanligiga amin bo'ldim, o'ylaymizki, o'zbeklar boshqa tilda gapirganda hech bo'lmasa, o'z vatani nomini to'g'ri talaffuz qilsa, bundan o'sha til egalari xafa bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkin-ki, azizlarim, o'z tilimizni onamiz singari hurmat qilaylik. So'zlayotganlarimizni bilib so'zlaylik. Chunki Jaloliddin Rumi aytganlaridek: "So'z insonning qiymati qadar qadrlidir"

Men so'zim so'nggida shuni aytib o'tishim joizki, ona tili ko'hna tariximiz, din-u diyonatimiz, xalqimizga xos dunyoqarash, his-tuyg'ularimizni ifoda etadigan, ajdodlar merosini avlodlarga to'raligicha yetkazadigan, o'zbek millatining dunyoda borligini ko'rsatadigan milliy boyligimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"
2. Sh.M.Mirziyoyev "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi" munosabati bilan so'zlagan nutqidan Bahriddinova B.M. Qarshi DU o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri
filologiya fanlari doktori. Ona tilimiz taraqqiyotida yangi bosqich: muammo va yechimlar
3. Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'otit-turk"
4. Erkin vohidov "So'z latofati" kitobidan
5. "O'z kimyosanoat" AJ davlat tilini rivojlantirish bo'yicha bosh mutaxassisi Kumush Abdusalomova o'zining "Millatning eng qudratli boyligi, ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi muhim vosita, bu – til" nomli ilmiy maqolasi
6. <http://www.ethnologue.com/>
7. <https://languageplus.info/staty/skolko-yazikov-v-mire>
8. YUNESCO "Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan dunyo tillari xaritasi" dan
9. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
10. Bahriddinova B.M. filologiya fanlari doktori. Ona tilimiz taraqqiyotida yangi bosqich: muammo va yechimlar